

Vatan himoyasiga kamarbastalar

Vatan himoyachilari kuni milliy bayram sifatida katta tantana bilan nishonlash o'ziga xos an'anaga aylangan. Bu bejiz emas, albatta. Siz-u bizning bugungidek tinch, xotirjam hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqdaki, mana shunday mas'uliyatlari burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo'layotgan o'g'lonlarimizni har qancha e'zozlasak, ko'kka ko'tarsak, arziydi. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida ham fakultet dekani Sh.Narbaev, yoshlari bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H.Eshova hamda fakultet xotin-qizlar kengashi raisi Z.Hafizovalar tashabbusi bilan Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlanga tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda O'zbekiston "VETERAN" jangchi faxriylar bilashmasi raisining o'rinnbosari palkovnik Sultanov Rustam, O'zbekiston "VETERAN" jangchi faxriylar bilashmasi Toshkent shahar Kengashi raisining o'rinnbosari Raxmatillaev Bekmurod, hamda fidoyi insonlardan biri yurtimiz vatanimiz kelajagi tinchligi uchun xizmat qilgan bugungi kunda nafaqada, bir qator shogirdlar chiqargan DXX UX faxriysi Eshov Xurram Buriyevichlar ishtirok etishdi.



Mehmonlarimiz Vatan, xalq, ajdodlarimiz, buyuk allomalarimizning shuhratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, har tomonloma yetuk, jismonan sog'lom, bilimli va fidoyi farzand qilib shakllantirish yo'lida xalq albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etishga qodir. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir insonning qalbiga Vatan tuyg'usini singdirish, bir necha ming yillik moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlaridan biri-onada O'zbekistonimizning haqiqiy jonkuyari bo'lishga erishish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridandir. Ana shunday fidoyi farzandlar bor ekan, ertangi kunga ishonchimiz xam yuksalib boraveradi. Zero, birinchi prezidentimiz, alohida ta'kidlaganidek, bugungi kunda O'zbekiston amalda o'zining zamonaviy, ixcham va xarakatchan, yaxshi kurollangan, mamlakatimiz barkarorligi va xavfsizligini, sarxadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiyasiga ega, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor». deb talaba-yoshlarmizga ma'lumotlar berib o'tishdi. Shundan so'ng talaba-qizlarimiz tadbir mehmonimizni, tadbiriga ishtirok etgan professor-o'qituvchilar va talaba-yigitlarimizni bayram bilan tabriklashdi. Biz ham harbiyalarimizni ushbu muborak bayram bilan tabriklaymiz hamda ularga oilaviy tinchlik-xotirjamlik, sog'liq-salomatlilik tilab qolamiz. Hayotingiz doimo sharaf va zafarlarga to'liq bo'lsin. Vatanimiz osmoni doimo musaffo bo'lishi uchun har doimgidek o'z kuch-g'ayratingizni ayamang.



TIQXMMI matbuot xizmati